



# INTER EDUCATION




GLOBAL STUDY

INSPIRATION FOR  
THE  
MODERN  
RESEARCHER

2026  
VOL.4. N°02

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal  
Научно-теоретический и  
методический журнал  
Scientific-theoretical and  
methodological journal



2992-9024



2026. VOLUME 4

ISSUE 02

ISSN 2992-9024

# INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

UZB

<p>Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 08 avgust №-111889-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan Bosh muharrir: Yadgarov Nodir Djalolovich, pedagogika fanlari doktori, professor Jamoatchilik kengashi raisi: Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, pedagogika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori</p> <p>Jurnal O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2024 yil 31- yanvardagi 350-son qaroriga asosan pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan</p> <p>Jurnal 2023 yilda tashkil etilgan, o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi</p> <p>«INTER EDUCATION &amp; GLOBAL STUDY» ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi</p> <p>Tahririyat manzili: 200100, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 24-uy, E-mail: pedagogicalperspective2023@gmail.com Tel: +998(97) 300-34-00 Jurnal sayti: intereduglobalstudy.com Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir</p>	<p><b>JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI:</b> <b>Dr. Ihsan Taktash</b>, professor, Yildirim Boyazit nomidagi Anqara universiteti, Turkiya. <b>Tanirberganov Medeubek Jumataevich</b>, pedagogika fanlari doktori, professor, Qozog'iston Pedagogika fanlari Akademiyasining akademigi, M. Auyezov Janubiy Qozog'iston Universiteti, Qozog'iston. <b>Magauova Akmaral Sabitollayevna</b>, pedagogika fanlari doktori, professor, Pedagogik ta'lim bo'yicha Xalqaro fanlar akademiyasi akademigi, Qozog'iston Milliy fanlar akademiyasi (QozMTFA) akademigi, Al- Farobiy nomidagi Qozog'iston Milliy universiteti, Qozog'iston. <b>Baydabekov Auez Kenesbekovich</b>, t.f.d., professor, L.N. Gumilyov nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti, Qozog'iston <b>Chernikova Svetlana Mixaylovna</b>, pedagogika fanlari doktori, professor, I.S. Turgenev nomidagi Oryol davlat universiteti, Rossiya. <b>Tajixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich</b>, texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston. <b>Sharif Ramazanovich Baratov</b>, psixologiya fanlari doktori, professor, Buxoro xorijiy tillar va psixologiya instituti, O'zbekiston. <b>Nazarov Akmal Mardonovich</b>, psixologiya fanlari doktori (Dsc), professor, Buxoro davlat universiyeti, O'zbekiston. <b>Jabborov Xazrat Xusenovich</b>, psixologiya fanlari doktori (Dsc), dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbekiston. <b>Boymudorova Gulzoda Toshtemirovna</b>, pedagogika fanlari doktori, professor, Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston. <b>Mamatov Dilshod Qodirovich</b>, pedagogika fanlari doktori (Dsc), professor, Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston. <b>Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich</b>, pedagogika fanlari doktori (Dsc), dotsent, Buxoro davlat pedagogika instituti, O'zbekiston. <b>Sodikova Munira Rustambekovna</b>, texnika fanlari doktori, dotsent, I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbekiston.</p>
---	---

## **BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARNING BADIY VA ESTETIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH**

**Kadirova Nozima Arifovna** — Buxoro davlat universiteti, Tasviriy va amaliy san'at kafedrası katta o'qituvchisi, Buxoro, O'zbekiston

**Kadirov Orif Maxmudovich** — p.f.n., dotsent, Buxoro pedagogika instituti, Buxoro, O'zbekiston

### **Annotatsiya**

**KIRISH:** mazkur maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy va estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda badiiy kompetentlik tushunchasi, uning pedagogik faoliyatdagi o'rni hamda ijodiy shaxsni shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Tasviriy san'at ta'limi jarayonida estetik idrok, badiiy tafakkur va ijodiy faoliyatning o'zaro bog'liqligi asoslab beriladi.

**MAQSAD:** tadqiqotning asosiy maqsadi — bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida badiiy va estetik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash, ularni ilmiy asoslash hamda samarali metod va vositalarni ishlab chiqish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, ijodiy ishlar tahlili va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, tasviriy san'at metodikasi, pedagogika va estetika bo'yicha ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Amaliy mashg'ulotlar, kompozitsiya ishlari, rangshunoslik topshiriqlari va ijodiy loyihalar samarali metod sifatida qo'llanildi.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA:** tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tizimli tashkil etilgan badiiy-pedagogik tayyorgarlik talabalarning estetik didi, kompozitsion tafakkuri va ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, talabalar tasviriy ifoda vositalaridan ongli foydalanish, rang uyg'unligini his qilish hamda san'at asarlarini tahlil qilish ko'nikmalarini egalladilar. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, kompetentlik rivojiga uch omil — metodik tayyorgarlik, ijodiy amaliyot va estetik muhit bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**XULOSA:** bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy va estetik kompetentligini rivojlantirish ularning professional tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur jarayon ilmiy asoslangan pedagogik yondashuv, ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash va estetik muhitni tashkil etish orqali samarali amalga oshiriladi. Ushbu kompetentlik pedagogning kasbiy mahorati hamda ta'lim jarayonining samaradorligini belgilaydi.

**Kalit so'zlar:** badiiy kompetentlik, estetik tarbiya, tasviriy san'at pedagogikasi, ijodkorlik, professional tayyorgarlik, metodika, san'at ta'limi.

## **РАЗВИТИЕ ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

**Кадирова Нозима Арифовна** — старший преподаватель кафедры изобразительного и прикладного искусства Бухарского государственного университета, Бухара, Узбекистан



**Кадыров Ориф Махмудович** — к.п.н., доцент Бухарского педагогического института, Бухара, Узбекистан

### **Аннотация**

**ВВЕДЕНИЕ:** в данной статье научно-теоретически анализируются педагогические основы развития художественно-эстетической компетентности будущих учителей изобразительного искусства. Раскрываются сущность художественной компетентности, её роль в педагогической деятельности и значение в формировании творческой личности. Обосновывается взаимосвязь эстетического восприятия, художественного мышления и творческой деятельности в процессе обучения изобразительному искусству.

**ЦЕЛЬ:** определить педагогические механизмы развития художественно-эстетической компетентности будущих учителей изобразительного искусства, научно обосновать их и разработать эффективные методы и средства.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ:** в ходе исследования использованы методы теоретического анализа, педагогического наблюдения, беседы, анкетирования, анализа творческих работ и опытно-экспериментальной работы. Изучены научные источники по методике преподавания изобразительного искусства, педагогике и эстетике. Практические занятия, композиционные задания, упражнения по цветоведению и творческие проекты применялись как эффективные методические средства.

**РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ:** результаты показали, что системно организованная художественно-педагогическая подготовка значительно повышает эстетический вкус студентов, композиционное мышление и творческую активность. В частности, студенты овладели навыками осознанного использования изобразительных средств, чувствования цветовой гармонии и анализа произведений искусства. Обсуждение выявило, что развитию компетентности способствуют три фактора — методическая подготовка, творческая практика и эстетическая образовательная среда.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** развитие художественно-эстетической компетентности будущих учителей изобразительного искусства является важной составляющей их профессиональной подготовки. Этот процесс эффективно реализуется при научно обоснованном педагогическом подходе, поддержке творческой деятельности и создании эстетической среды. Данная компетентность определяет профессиональное мастерство педагога и эффективность образовательного процесса.

**Ключевые слова:** художественная компетентность, эстетическое воспитание, педагогика изобразительного искусства, творчество, профессиональная подготовка, методика, художественное образование.

Tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda kompetentlik yondashuvi muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim natijasi faqat bilimlar yig'indisi bilan emas, balki shaxsning real faoliyatda bilimlarni qo'llay olish qobiliyati bilan baholanadi. Demak, talaba nazariy ma'lumotni yod olish bilan cheklanmay, uni ijodiy jarayonda qo'llay bilishi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi zarur. Shu nuqtai nazardan mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil etish samarali hisoblanadi.

Loyiha metodi, muammoli ta'lim, "aql charxi", klaster, portfoliolar, guruhiy ishlanmalar kabi metodlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, talabalarga ma'lum bir ijtimoiy yoki madaniy mavzu asosida kompozitsion loyiha ishlab chiqish topshirig'i berilganda, ular mavzuni tahlil qiladi, g'oya ishlab chiqadi, vizual yechim izlaydi va natijani taqdim etadi. Bu jarayon ijodiy tafakkur bilan bir qatorda tahliliy fikrlashni ham rivojlantiradi.

Badiiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismlaridan biri estetik idrokdir. Estetik idrok san'at asarlarini chuqur his qilish, ularning mazmuni va shakliy xususiyatlarini anglash, ulardan zavq olish qobiliyatini bildiradi. Bu sifat muntazam kuzatish, tahlil qilish, solishtirish va baholash jarayonida shakllanadi. Talabalar turli davr va uslubga mansub asarlarni tahlil qilish orqali san'atning rivojlanish bosqichlarini anglaydilar, badiiy ifoda vositalarining xilma-xilligini ko'radilar.

Virtual galereyalar, multimedia taqdimotlari, slaydlar, video materiallar zamonaviy ta'lim vositalari sifatida estetik idrokni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarga dunyo san'ati namunalarini keng ko'lamda o'rganish imkonini beradi. Bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi, madaniyatlararo muloqotni kuchaytiradi.

Kompozitsion tafakkur ham badiiy kompetentlikning asosiy komponentlaridan biridir. Kompozitsion tafakkur tasviriy elementlarni maqsadga muvofiq joylashtirish, obraz yaratish, g'oyani vizual shaklda ifodalash qobiliyatini anglatadi. Bu ko'nikma muntazam mashqlar orqali shakllanadi. Talaba kompozitsiya ustida ishlash jarayonida muvozanat, ritm, kontrast, markaz, proporsiya kabi tushunchalarni amaliy jihatdan o'zlashtiradi. Natijada u tasviriy vositalardan ongli ravishda foydalanishni o'rganadi.

Rang sezgirligi rassomlik mahoratining ajralmas qismidir. Ranglarni to'g'ri tanlash, ularning uyg'unligini his qilish, sovuq va issiq ranglar o'rtasidagi munosabatni anglash, rang kontrastlaridan maqsadga muvofiq foydalanish tasviriy ishning ifodaviyligini belgilaydi. Rangshunoslik mashg'ulotlari davomida talabalar ranglarning psixologik ta'siri, rang uyg'unligi qonuniyatlari, kolorit yaratish usullarini o'rganadilar. Bu bilimlar ularga o'z asarlarida muayyan kayfiyat va mazmuni ifodalash imkonini beradi.

Badiiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida pedagogik refleksiya muhim o'rin tutadi. Refleksiya talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, kelgusida ularni takomillashtirish yo'llarini belgilashiga yordam beradi. Mashg'ulot yakunida bajarilgan ishlarni birgalikda muhokama qilish, o'zaro fikr almashish, tanqidiy tahlil qilish refleksiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa professional o'sish uchun mustahkam zamin yaratadi.



Ijodiy mustaqillikni rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Talabani o'z g'oyalarini erkin ifoda etishi, yangi yechimlar topishga intilishi, eksperiment qilishdan qo'rqmasligi uning ijodiy salohiyatini namoyon etadi. Erkin mavzudagi ijodiy ishlar, mualliflik loyihalari, shaxsiy ko'rgazmalar tashkil etish talabani o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bunday faoliyat natijasida u individual uslub yaratish sari qadam tashlaydi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida kommunikativ kompetentlik ham muhimdir. U o'z fikrini ravon bayon qila olishi, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish bilishi, ularni ijodiy faoliyatga ruhlantira olishi kerak. San'at darslari ko'pincha erkin muhitda o'tadi, shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning fikrini hurmat qilishi, ularni qo'llab-quvvatlashi zarur. Bu esa pedagogdan yuqori darajadagi psixologik madaniyatni talab etadi.

Shuningdek, milliy madaniy merosni chuqur o'rganish va uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish ham badiiy kompetentlikni boyitadi. An'anaviy naqshlar, miniatyura san'ati, amaliy bezak san'ati namunalarini o'rganish talabalarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytiradi. Ular milliy va zamonaviy san'at uyg'unligini ta'minlash yo'llarini izlaydilar.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatadiki, tizimli va izchil tashkil etilgan badiiy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat tasviriy mahoratini oshiradi, balki ularning estetik qarashlari, madaniy saviyasi, ijodiy faolligi ham sezilarli darajada rivojlanadi. Nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida olib borilgan mashg'ulotlar ayniqsa samarali natija beradi. Bunda talaba bilimni real ijodiy faoliyatga tatbiq etadi, o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Nazariy tayyorgarlik, amaliy faoliyat, estetik muhit, interfaol metodlar, refleksiya, ijodiy mustaqillik va milliy qadriyatlarga tayanish ushbu jarayonning asosiy omillaridir. Bunday yondashuv natijasida nafaqat malakali mutaxassis, balki estetik tafakkuri rivojlangan, ijodkor, tashabbuskor va ma'naviy yetuk pedagog shaxsi shakllanadi. Bu esa kelajak avlodni go'zallikni qadrlaydigan, san'atni tushunadigan va yaratadigan insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | REFERENCES

1. Abdullaev S., Mamatov D. Pedagogical foundations in the teaching of folk arts and crafts of Uzbekistan in the training of teachers of fine arts // E3S Web of Conferences. 2023. Vol.420.
2. Djalolovich Y.N. Improving the professional training of fine art teachers // European Science. 2021. №2.
3. Rasulova M. Tasviriy san'at pedagogikasi asoslari. Toshkent: Fan, 2020.
4. Sobirov R. San'at ta'limida metodik yondashuvlar. Toshkent, 2019.
5. Xasanov A. Tasviriy san'at nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, 2018.
6. Karimov B. Estetik tarbiya metodologiyasi. Samarqand, 2021.
7. Ismoilov T. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent, 2022.





8. Nurmatov Q. Badiiy tafakkurni shakllantirish asoslari. Buxoro, 2019.
9. Yo'ldoshev S. San'atshunoslikka kirish. Toshkent, 2017.
10. Eshonqulov J. Rangtasvir nazariyasi. Toshkent, 2020.
11. Safarova D. Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. Toshkent, 2021.
12. Begmatov U. Tasviriy faoliyat metodikasi. Andijon, 2018.
13. Saidov P. Pedagogik mahorat va ijodkorlik. Toshkent, 2019.
14. Qodirov N. San'at ta'limida innovatsion texnologiyalar. Buxoro, 2022.
15. Tursunova L. Estetik madaniyat va shaxs rivoji. Toshkent, 2020.

Xaitova Nodira Bafoyevna	The content of text creation competence and the current state of text creation competence among future primary school teachers.	166-176
Z.B. Jalilov	Educating the perfect human through innovative approaches of eastern pedagogical heritage.	177-183
Ibodulloyev Nurali Sheraliyevich	The importance of artificial intelligence in developing students' creative qualities in extracurricular education.	184-192
Nozima A. Kadirova Orif M. Kadirov	Development of artistic and aesthetic competence of future fine arts teachers.	193-199
Djo'rayeva Mukhayyo Khayriddinovna	Pedagogical specifics of educating preschool children based on national values.	200-208
Shavkatova Ozoda Ibrokhim qizi	The history of development and modern trends of compression sportswear.	209-224
Sobirov Ulugbek Gofurovich	The theory and practice of oratory in the philosophy of the ancient world.	225-236
A.I. Temirov	Pedagogical technique - as the main factor in the development of professional competencies.	237-242
Khurramov Anvar Khudayshukurovich	Developing students' informational mobility through information and telecommunication technologies.	243-250
Kholmatova Fotima Bakhtiyor qizi	Forming dialogic speech in preschool children through methods based on art-pedagogical approach.	251-259
Dosmurzaeva Ayjan Orazbek qizi	Digital interactive technologies in the system of corrective work on the development of the lexico-semantic aspect of speech in children with hearing impairments.	260-267
Ostonova Gulshod Razzoqovna	Methods of art-pedagogical education in the system of inclusive education.	268-275
Khusnora S. Kholmamatova	Modern interpretation of the concept of professional competence: digital transformation in training english language teachers.	276-284
Ergashov Mansur Yarashovich Sadullayev Ibrat Shukhratovich	Opportunities for using digital educational technologies in the methodology of teaching chemistry.	285-296
Bibikhonim Sanjarovna Sa'dullayeva	Literary studies in the system of philological sciences.	297-309
Shavkatova Ozoda Ibroxim qizi	Compression sportswear: development history and modern trends.	310-325
Sobirova Mokhira Rasulovna	The importance of digital classrooms in enhancing students' creative abilities.	326-331
Makhmudova Zebiniso Maksudovna	Pedagogical essence of deontological competence in the professional activity of a teacher.	332-340
Bozorova Risolat Abdurahmonovna Kamilova Gulmira Alimovna	Pedagogical foundations of forming communicative skills in early childhood.	341-351
Nafisa Muzaffarovna Avliyakulova	The use of digital technologies to improve the methodology for developing the professional competence of future fine arts teachers.	352-362
Kholmatova Saidakhon Vokhobjonovna	Scientific and pedagogical foundations for enhancing the inclusive-deontological competence of future teachers through interactive methods and multimedia tools.	363-370
D.I. Tosheva	Educational issues in the works of munavvarqori abdurashidkhanov.	371-380
Nurmuratov Anvar Yakhshibayevich	Theoretical and methodological foundations for developing skills in working with educational grants.	381-388
Abdullayeva Lola Tokhirovna	Project-based learning as a means of understanding the concept of "success" in teaching english to university students.	389-399
Usmonova Oydin Sherali qizi	The "4K" educational model incorporating 21st century skills.	400-407